

**QASHQADARYO VILOYATI SANOAT TARMOQLARI
RIVOJLANISHINI IQTISODIY TAHLILI**

Sultonov Shuxrat Adxamovich

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Geologiya va konchilik ishi" kafedrasi
dotsenti,
sultonovshuxrat87@gmail.com*

Annotatsiya Maqolada Qashqadaryo viloyati sanoat tarmoqlari rivojlanishini iqtisodiy jihatlari tahlil qilingan bo'lib. O'zbekiston Respublikasidagi viloyatning sanoat ulushi, undagi o'ziga xos o'rni, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soniga ko'ra tahlili atroflicha muhokama qilingan va tegishli xuloasalar qilingan.

Kalit so'zlar: sanoat, modernizatsiya, diversifikatsiya, mintaqa, import, eksport, texnologiya, axborot tizimi, korxona, raqobatdosh, tog'-kon, konditsiya, tashqi savdo aylanmasi, yoqilg'i-energetika.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, hayotning o'zi va xalqning talablari bizning oldimizga amaliy yechimini topish lozim bo'lgan yangi va yanada murakkab vazifalarni qo'ymoqda. Xususan sanoat tarmoqlaridagi muammolar va hayotning o'zi oldimizga qo'ygan murakkab vazifalami tezroq hal qilish, ularning yechimini izlab topish, ko'p jihatdan kishilarining iqtisodiyot sirlarini, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti munosabatlarining mazmunini, ularning talablari, ziddiyatli va chalkash xususiyatlarini, qonun-qoidalarini, mamlakatimizda iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish maqsadida qabul qilingan strategik dasturlar mazmunini, amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, inson manfaatini birinchi o'ringa qo'yish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashning maqsadi va mohiyatini chuqurroq bilishlariga bog'liqdir.

Iqtisodiyot tushunchalarini, uning qonun qoidalarini, tejamli xo'jalik yuritish sirlarini, turli kishilar va sohalarning bir-birlari bilan manfaatli iqtisodiy aloqada bo'lib, unumli mehnat qilish yo'llarini va shakllarini bilis har bir jamiyat a'zosi uchun muhimdir.

Jamiyatda ro'y beradigan iqtisodiy qonunlarni sanoat tarmoqlarida qo'llanilishini bilish va ularning amal qilishiga ongli munosabatda bo'lishda, mamlakatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish jarayonlari mohiyatini tushunish uchun zarur bo'lgan bilimlar bo'lishini ahamiyati beqiyosdir.



ADABIYOTLAR T AHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРЫ/METHODS). Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va sanoatning tarkibini takomillashtirish masalalari ko'plab mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng o'r ganilgan. Mintaqalar sanoat taraqqiyoti o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish, sanoat ishlab chiqarishni joylashtirish va rivojlan Tirishning ayrim jihatlari xorijiy iqtisodchi, iqtisodiy geograf olimlar N.N.Kolosovskiy, A.T. Xrushev, U.Izard, A.Veber, A.Granberg, V.V.Kistanov, V.Kristaller, I.Tyunen, A.Lyosh, T.Xegerstrand, F.Perrular tomonidan tadqiq etilgan.

O'zbekistonda sanoat tarmoqlarini joylashtirish va rivojlan Tirishning nazariy va amaliy masalalari bilan M.A.Abdusalomov, I.I. Iskandarov, T.M.Ahmedov, E.A.Ahmedov, N.T.To'xliyev, A.S.Soliyev, A.A.Qayumov, A.M.Sodiqov, F.T.Egamberdiyev, A. T.Yusupov, H.A.Abdunazarov, A.G.Abdullayev, Sh.S.Jo'rayev va boshqa olimlar shug'ullanishgan.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi sharoitida sanoat korxonalarining rivojlanishi va hududiy tashkil etilishi muammolari bo'yicha qator ishlar bajarilgan. Jumladan, L.Erdonov (1993), L.Qarshiboyeva (2000), H.Mirzaahmedov (2003), H.Abdunazarov (2005), D.Ro'zmetov (2009) va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida sanoat rivojlanishining ayrim jihatlari tadqiq etilgan.

So'ngi yillarida R.X.Ergashev, S.N.Hamroyeva, A.A.Qurbonov kabi olimlar o'z tadqiqotlarida va ilmiy maqolalarida bevosita Qashqadaryo viloyati iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishi va shakllanishi to'g'risida izlanishlar olib borgan. Mazkur maqola iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish sharoitida viloyat sanoati rivojlanishining imkoniyatlarini kompleks tahlil va tadqiq qilinishi bilan boshqa tadqiqot ishlaridan farq qiladi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). Bugungi kunda yosh avlodda xususan ta'lif muassasalarida tahsil olayotgan talabalarda bunyodkorlik g'oyalarini shakllantirish, ularning ilmiy dunyoqarashini chuqurlashtirish va kengaytirish, iqtisodiy madaniyatni oshirish kabi muhim amaliy vazifalarni bajarish orqali soha ya'ni sanoat korxonalarida iqtisodiy ishlar holatini bilishning ahamiyati tobora oshib bormoqda.

Iqtisodiy rivojlanish jarayonida O'zbekistonning yana bir yetakchi tarmog'i qishloq xo'jaligi sohasi hamma vaqt sanoat, savdo va boshqa tarmoqlar bilan mustahkam bog'liq bo'lib kelganligini hisobga olish kerak. Chunki mamlakatning oziq-ovqat mahsulotlariga va qishloq xo'jalik xomashyosidan tayyorlangan tovarlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish faqat qishloq xo'jaligining holatiga emas, balki sanoat tarmoqlari bilan uyg'un rivojlanishiga ham bog'liq bo'ladi. Xuddi ana shu holat iqtisodiyot tarkibida agrosanoat majmuasini bitta pirovard natijani



ro'yobga chiqarishga bo'ysundirilgan tarmoqlaming yagona, yaxlit tizimini keltirib chiqarish uchun asos bo'ladi.

Fan-texnika taraqqiyotining keyingi shaklda rivojlanishi yuksak samara beradi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagি PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining 3.2 - bandida keltirilgan tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish: ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish yo'nalishini rivojlantirishga, e'tiborni qaratmoq lozimdir.

Fan-texnika, texnologiya va axborot tizimidagi o'zgarishlarga qarab R.Aron, Dj.Gelbreyt, U.Rostou va boshqa olimlar jamiyat taraqqiyoti bosqichlarini uch bosqichga: industrlashgangungacha bo'lgan jamiyat, industrlashgan jamiyat, yuqori industrlashgan yoki axborotlashgan jamiyatlarga bo'lib o'rganishni tavsiya etadilar. Bunda ular industrlashishgacha bo'lgan jamiyatning asosiy belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatadilar:

1. Aholining asosan qishloq xo'jaligi bilan bandligi.
2. Qo'l mehnatining hukmronligi.
3. Mehnat taqsimotining juda kamligi (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo, boshqaruva va boshqalar).
4. Natural xo'jalikning hukmronligi.

Jamiyat taraqqiyotining ikkinchi muhim bosqichi industrlashgan jamiyatning asosiy belgilari:

1. Ishlab chiqarishning avtom atlashganligi.
2. Sanoatning fan-texnika yutuqlari asosida rivojlanishi, unda ishchilar sonining ko'payishi.
3. Shahar aholisining qishloq aholisiga qaraganda ko'payishi va boshqalar.

Taraqqiyotning uchinchi muhim bosqichi yuqori darajada industrlashgan jamiyatning asosiy belgilari:

1. Xizmat ko'rsatish sohasining yuksak darajada rivojlanishi.
2. Ishchi kuchining asosiy qismi (60-70%) shu sohada band bo'lishi.
3. Fanning bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylanishi, malakali mutaxassislar rolining oshishi.
4. Iqtisodiyotning ham m'a sohalarida va kundalik hayotda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo'llanilishi.



5. Tovarlar va xizm atlari sifatini tushurm asdan iqtisodiy resurslarning ham m'a turlarini tejash imkonini beradigan yangi texnika va texnologiyalarning keng qo'llanilishi va boshqalar.

Biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, texnika va texnologiyadagi o'zgarishlar jamiyat taraqqiyotida asosiy ahamiyatini va tashkiliy, boshqaruvi tizimlarining, ishchi-xizmatchilar tarkibining o'zgarishiga, mehnat unumdarligi o'sishiga olib keladi. Lekin bu texnik o'zgarishlarga qarab bir tomonlama yondashuv bilan jamiyat taraqqiyoti qonunlarini aniqlab bo'lmaydi. Ayniqsa, iqtisodiy tizimlar va ularning xarakterini bilishda texnik va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni birgalikda, ularning o'zaro bir-biriga ta'sirini dialektik aloqadorlik va ta'sir natijasida sodir bo'ladigan taraqqiyot qonunlari asosida o'rganish zarurdir.

Shunday ekan hozirgi O'zbekistan *iqtisodiyotida sanoat jadal suratda rivojlanayotgan tarmoq sifatida e'tirof etiladi*. Mamlakatda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktabrdagi PF-169-son Farmoniga ko'ra yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat yo'nalişlarini jadal rivojlantirish, sanoat tarmoqlariga xususiy investitsiyalarni keng jalg etish orqali raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish hisobidan aholi daromadlarini oshirish hamda yirik tarmoqlarga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan boshqaruvi tizimini joriy etishga oidligi ushbu soha mutaxasisilari va iqtisodchilar oldiga mas'uliyatli vazifa yukladi desak xato bo'lmaydi. Ushbu farmonning 10-bandida shunday jumlalar borligi fikrimizni dalilidir.

- kimyo sanoatida islohotlarni amalga oshirish, tarmoqda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, mavjud tabiiy resurslarni chuqur qayta ishlash va talab yuqori bo'lgan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish bo'yicha yagona siyosatni amalga oshirish;

- kimyo sanoatida siyosatni belgilovchi strategik hamda o'rta va uzoq muddatli rivojlanish va islohotlar dasturlari, shuningdek, boshqa dasturiy hujjalarni ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini muvofiqlashtirish;

- tarmoq korxonalarini transformatsiya qilish va ularning operatsion samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash;

- kimyo sanoati korxonalarini asosiy xomashyo bilan ta'minlash proqnozlarini, shu jumladan ishlab chiqarish va resurs balanslarini shakllantirish hamda ijrosini muvofiqlashtirish;

- kimyo sanoati tarmog'idagi loyihalarga zamonaliv yuqori texnologiya uskunalar va innovatsion texnologiyalarni jalg qilish, mahalliy mahsulotlarni yangi tashqi bozorlarga chiqarishga ko'maklashish;

- yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga xususiy kapitalni, jumladan xorijiy investitsiyalarni jalg qilish;

- kimyo sanoati korxonalarida texnik standartlarni ishlab chiqish;



Sanoatni ustuvor darajada rivojlantirish dasturi va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir tarmoq dasturlarining izchil amalga oshirilishi natijasida sanoat tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan, raqobatdosh mahsulotlar taylorlayotgan qayta ishlash tarmoqlarining o'rni ortib bormoqda. Sanoatda olib borilayotgan islohotlar natijasida yalpi ichki maxsulot tarkibida sanoatning ulushi hozirgi vaqtida 50 foizdan ziyodni tashkil etmoqda. Xolbuki, bu ko'rsatkich 2010-yilda 24,2 foizdan, 2000-yilda esa 14,2 foizdan iborat edi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS). So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti. Jumladan, 2024-yil 1-yanvar holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 33 064 tani tashkil etdi.

Viloyatda bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soniga ko'ra tahlil qilganda Qarshi shahri (6463 ta), Koson (2366 ta), Qarshi tumani (2355 ta) yetakchilik qilsa, Dehqonobod (1124 ta), Muborak (1124 ta) va Ko'kdala (984 ta) tumanlari quyi o'rirlarni band etadi (1-jadval).

1-jadval


Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

No	Tuman va shaharlar	Korxona va cilotlar soni	No	Tuman va shaharlar	Korxona va cilotlar soni
1	Qarshi shahri	6463	9	Shahrisabz	1716
2	Koson	2366	10	Nishon	1685
3	Qarshi	2355	11	G'uzor	1645
4	Kitob	2300	12	Kasbi	1586
5	Yakkabog'	2299	13	Mirishkor	1413
6	Qamashi	2145	14	Dehqonobod	1380
7	Shahrisabz shahri	1883	15	Muborak	1124
8	Chiroqchi	1720	16	Ko'kdala	984

Manba: Qashqadaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



Viloyatimizda hozirgi kunda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 33064 tani tashkil etadi, shu jumladan sanoat yo'nalihidagi korxona va tashkilotlar soni 3776 ta (11,4 %) ni tashkil qiladi. Bunday turdag'i korxona va tashkilotlarning soniga ko'ra viloyatda Qarshi shahri (687 ta), Kitob tumani (436 ta) va Yakkabog' tumanlari (336 ta) yetakchilik qiladi (**1-rasm**).



Manba: Qashqadaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

1-rasm. Sanoat yo'nalihidaga faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

Sanoat yo'nalihidagi korxona va tashkilotlarning 90,6 % i (3424 ta) ishlab chiqarish sanoatiga, 7,2 % (271 ta) tog'-kon sanoatiga, 1,3 % (48 ta) suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalariga, 0,9 % (33 ta) Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashga oid korxona va tashkilotlarga to'g'ri keladi(**2-rasm**).



Manba: Qashqadaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

2-rasm. Sanoat yo'nalishidagi korxona va tashkilotlar tarkibi(birlikda)

Qashqadaryo viloyati, jahonning 72 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqlarini amalga oshirib kelmoqda. Tashqi savdo aylanmasi (TSA) ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (28,5 %), Turkiyada (14,0 %), Rossiya Federatsiyasida (13,5 %), BAAda (6,1 %), Qozog'istonida (4,4 %), Pokistonda (3,7 %), AQSHda (3,6 %), Tojikistonda (2,4 %), Polshada (2,4 %) va Latviyada (2,2 %) qayd etilgan.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga impor tovarlarning o'rnnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi. Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin

2-jadval

Qashqadaryo viloyatining eksport va import tarkibi (umumiylashtirilgan foizda)

Eksport va import tarkibi	2021y.	20 22 y.	2023 y.
Tashqi savdo aylanmasi	100,0	10 0,0	100,0
Eksport	47,7	55, 2	57,9
Import	52,3	44, 8	42,1
Eksport tarkibi	100,0	10 0,0	100,0

TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSAda Qirg'iziston Respublikasi, Qozog'iston va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi va BAA davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Viloyatning tashqi savdo aylanmasida eksport mahsulotlarining ulushi 57,9 foizni, import mahsulotlarining ulushi 42,1 foizni tashkil qiladi.



Eksport mahsulotlari orasida to'qimachilik va to'qimachilik mahsulotlari (59,9 %), energiya va neft mahsulotlari (20,0 %), Oziq-ovqat mahsulotlari (15,4 %) ning ulushi yuqori hisoblanadi.

Import mahsulotlari tarkibida mashina va uskunalar, shu jumladan ehtiyot qismlar va moslamalar (64,6 %), kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan mahsulotlar (9,1 %), Qora metallar va undan yasalgan buyumlar (8,7 %) yetakchilik qiladi (2-jadval).

Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport qilish sektorining salohiyati juda yuqori va bu qulay tabiiy-iqlim sharoitlari mavjudligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan to‘plangan tajriba bilan ham bog‘liqligi bilan ifodalanadi. Shu munosabat bilan hukumat qishloq xo‘jaligi xom-ashyosini sanoat asosida qayta ishlashga va yetishtirilgan mahsulotni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda.

2023-yilda viloyat YAHM hajmini 58,4 trln.so‘m (106,7 % ga) ga, sanoat mahsulotlari hajmini 9,6 trln.so‘m (107,1 %ga), qishloq xo‘jaligi hajmini 25,5 trln.so‘m (104,3% ga), xizmat ko‘rsatishni 19,2 trln.so‘m (104 % ga), qurilish ishlari hajmini 3,8 trln.so‘m (107 % ga) va aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot hajmini 102,7 foizga oshirildi. Shu bilan bir qatorda ishsizlik darajasini 9,2% ga kamaytirish, 82,7 ming kishini ish bilan ta‘minlash, kambag‘allikni 9,4% ga qisqartirish, yangi tashkil qilingan kichik biznes subyektlari sonini 10048 taga yetkazish, hududiy eksport mahsulotlar hajmini 256,4 mln.dollar (1,4 baravar)ga yetkazish belgilandi. Shuningdek, eksport tarkibida qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ulushini 45 foizdan oshirish; Yevropa bozorlariga kirish uchun qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlariga “Qashqadaryo” brendini joriy etish rejalashtirilgan.

Viloyat iqtisodiyotiga barcha manbalar hisobidan 90,0 trln so‘mlik investitsiyalar jalgan etilib, shundan 50,9 trln so‘mi xorijiy investitsiyalarni tashkil etgan. 2021-yilda viloyatda “Uzbekistan GTL” zavodining ishga tushirilishi O‘zbekistonda yangi sanoat davrining ifodasi, deb baholanmoqda. Zavodning qiymati 3 mlrd 420 ming dollar bo‘lib, binolar maydoni 135 gektarni tashkil qilgan. Zavod yiliga 3,6 mlrd metr kub tabiiy gazni qayta ishlab, 307 ming tonna aviakerosin, 724 ming tonna dizel yoqilg‘isi, 437 ming tonna nafta, 53 ming tonna suyultirigan gaz tayyorlash quvvatiga ega. Bunday yirik majmua shu paytgacha jahonda faqat 4 ta davlatda – Qatar, Nigeriya, Janubiy Afrika Respublikasi va Malayziyada barpo etilgan. Zavodda Yaponiya, Koreya, Singapur, AQSH, Germaniya, Italiya, Buyuk Britaniya, Rossiya, Xitoy kabi 24 ta davlatdagi 130 ga yaqin yetakchi korxonalarda tayyorlangan 10 mingdan ziyod uskunalar



o'rnatilgan. Texnologik yechimlar, uskuna va jarayonlarni qo'llash uchun 140 ta xalqaro litsenziya va patentlar olingan.

Hududlarda o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi bo'yicha Qashqadaryo viloyati O'zbekiston Respublikasida eng yetakchilardan biri bo'lgan holda, investitsiyalar ulushida yoqilg'i-energetika majmuasining ulushi yuqoriligi sababli hududiy loyihalarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalg qilish masalasi e'tibordan chetda qolgan edi.

Viloyatning investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 64 tadan 225 taga yetdi.

Joriy yildagi "yo'l xaritasi"ga muvofiq, viloyatda budget tushumlarini ko'paytirish, soliq bazasini kengaytirish, soliqlarni yig'ish samaradorligini oshirish orqali budgetga 3677,5 mlrd.so'm tushumlarni ta'minlash maqsadi belgilandi. Shuningdek, tuman (shahar) lar budgetlari parametrlarida hududiy ichki yo'llarni ta'mirlash uchun ajratiladigan mablag'larning kamida 50% "Ochiq budget" axborot portali orqili jamoatchilik fikri asosida aniqlangan ichki yo'llarni ta'mirlashga yo'naltirilgan.

Viloyatda sanoat tarmog'ini barqaror rivojlantirish uchun sanoat zonalari faoliyatini kengaytirish maqsadida Qarshi aeroporti yonidagi barcha infratuzilmaga ega 120 hektar maydonda, erkin iqtisodiy sanoat zonasini, Kitob tumanida "Urgut erkin iqtisodiy zona"sining filiali, yangidan 6 ta kichik sanoati zonasini tashkil qilinadi.

Viloyatda 2022-2026 yillar oralig'ida yalpi hududiy mahsulot hajmini 319,5 trn so'm (1,5 baravar o'sish)ga yetkazish, shu jumladan, sanoat mahsulotlari hajmini 144,5 trln so'm (1,5 baravar)ga, qishloq xo'jaligi 165,6 trln.so'm (1,2 baravar), xizmat ko'rsatish 162,7 trln so'm (2,9 baravar), qurilish ishlari hajmini 42,2 trn so'm (1,2 baravar)ga yetkazish maqsad qilib belgilandi. Shu bilan bir qatorda, ishsizlik darajasini 7,6% ga kamaytirish, kambag'allikni 50% ga qisqartirish, yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonini 51585 taga yetkazish, 3832 ta investitsiya loyihalarini ishga tushirish, hududiy eksport mahsulot hajmini 1652,6 mln dollarga yetkazish maqsadi belgilangan.

Shu bilan birga, kelgusi besh yillik dasturga muvofiq qo'shimcha 400 mingta ish o'rni yaratish ko'zda tutilgan.Buning uchun tadbirkorlikni rivojlantirish, yirik korxonalar infratuzilmasidan samarali foydalanish rejalashtirilgan.Jumladan, viloyatdagi yirik sanoat korxonalari yonida 75 ta yangi kichik sanoat zonasini ochib, 25 mingta doimiy ish o'rni yaratish rejalashtirilgan.Shuningdek, Qarshi aeroporti yaqinidagi 120 hektar maydonda sanoat texnoparki tashkil etish 10 mingta ish joyi ochish imkonini beradi. Qayd etilganidek, kelgusi besh yilda sanoat tarmoqlarida qariyb 10 mlrd.dollarlik 2 mingdan ziyod katta-kichik loyihalar amalga oshiriladi



va 150 mingta yangi ish o'rirlari yaratiladi. Shuningdek, yangi kimyo klasteri tashkil etilib, jami 2,7 mlrd.dollar bo'lgan 12 ta loyiha malga oshiriladi. Nishon, Kasbi, Mirishkor va Yakkabog' tumanlarida to'qimachilik korxonalari ochiladi. Qurilish materiallari tarmog'ida 740 mln.dollarlik 430 ta, oziq-ovqat sanoatida 320 mln dollarlik 185 ta loyiha bajarilishi ko'zda tutilgan. Xususan, viloyatning Kitob, Qamashi, Dehqonobod va Chiroqchi tumanlarida marmar va ohaktosh plitalari, gips, gipsokarton va tabiiy pardozbop toshlar kabi qurilish materiallari ishlab chiqaradigan sanoat klasterlari tashkil qilinadi. Mirishkor, Kitob tumanlari va Qarshi shahrida 185 million dollarlik 42 ta yangi loyihalar ishga tushiriladi. Chiroqchi, Dehqonobod, Kasbi, Mirishkor va Nishon tumanlarida yangi tashkil etiladigan tadbirkorlik subyektlari uchun, 2025 yil 1 yanvarga qadar foyda solig'i stavkasi 50 foizga pasaytiriladi hamda yer, mol-mulk, aylanmadan soliqlar to'lashdan ozod etiladi.

Qashqadaryo viloyatining respublika yoqilg'i-energetika majmuasida alohida o'rin egallashini qayd etish lozim. Bugungi kunda respublikamizda qazib olinayotgan tabiiy gaz, gaz kondensati va neftning aksariyat qismi Qashqadaryo viloyati-hissasiga to'g'ri keladi.


3-jadval

Viloyat sanoatining asosiy ko`rsatkichlari

Sanoat tuguni nomi	2020yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
Sanoat mahsuloti hajmi, mlrd. so'm	14574,8	18771,9	22624,4	28259,6
Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, o'tgan yilga nisbatan foizda	100,5	115,4	110,1	107,1
shu jumladan:				
Qazib oluvchi sanoat	1675,9	2079,4	1715,2	1626,3
Qayta ishlovchi sanoat	10097,0	12131,1	15352,2	22132,9

Manba:Qashqadaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 22 132,9 mlrd. so'm bo'lib, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 78,3 foizni tashkil etdi(**3-jadval**).



Manba:Qashqadaryo viloyati Statistika boshqarmasi 2023-yil ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

3-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (umumiy hajmga nisbatan ulushi, foiz hisobida, 2023 yil)

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Qashqadaryo viloyatida kelgusi besh yilda elektr ta'minotini yaxshilash maqsadida 6199,1 km elektr tarmoqlarini qurish va ta'mirlash, 1673 ta transformatorlarni qurish va ta'mirlash, 13 ta podstansiyalarini yangilash ishlari amalga oshiriladi.

Shuningdek, 2022-2026 yillarda viloyatdagi yo'llarni talab darajasida bo'lishi maqsadida 4369,2 km avtomobil yo'llarini qurish va ta'mirlash, 814,9 km umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini asfaltlash, 1832,5 km ichki xo'jalik yo'llarni shag'allash va 1721,8 km.ni asfaltlash ishlari amalga oshiriladi. Dasturga muvofiq, kelgusi besh yilda viloyatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish uchun davlat hisobidan 60 trln so'm ajratiladi. Xulosa qilib aytganda, belgilangan rejalar, qayd etilgan raqamlar, ajratilgan mablag'lar yaqin yillarda Qashqadaryo viloyatini mutlaqo yangicha qiyofada ko'rishimizga sabab bo'ladi.

Qashqadaryo viloyati sanoatining tarmoq tarkibidagi o'zgarishlar quyidagi muammolarni hal etish zaruriyatini keltirib chiqaradi:

- ❖ viloyat sanoati taraqqiyotida qayta ishlash sanoati rivojlanishining ustivorligiga erishish va uning yalpi sanoat mahsulotidagi salmog`ini oshirish;
- ❖ Qashqadaryo sanoatining xom ashyoga yo'nalganlik darajasini pasaytirish va tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarini barpo etish hamda rivojlantirish;
- ❖ viloyatda og'ir sanoatning yoqilg'i-energetikadan boshqa tarmoqlari



mashinasozlik, kimyo va neft kimiysi, qurilish materiallari sanoatining rivojlanishiga alohida e'tibor qaratish;

❖ yengil sanoatni rivojlantirish uchun mavjud bo'lgan ichki salohiyatdan samarali foydalanish va bu tarmoqqa xorijiy investisiyalarni jalg etishni faollashtirish;

❖ oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishslash, konservalar, meva sharbatlari ishlab chiqarishga asosiy o'rinn ajratish va bu sohaga xorijiy investisiyalarni jalg etish va hokazo.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /REFERENCES).

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktabrdagi PF-169-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2022-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari.
4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari.
5. Абдуллаев А.А.ва бошқалар. Корхона иқтисодиёти.Т.: 2004й.190-б.
6. Акрамов Э.Л. Корхоналарнинг молиявий ҳолати таҳлили.-Т.: Молия, 2010, 223 б.
7. Fayzullaev M.A., Nurmatov A.U., Khujakulov S.U. Economic geographical characteristics of the development of industrial networks of Kashkadarya region // Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies Hosted online from Paris, France. P. 125-134.
8. Gaibnazarova Z.T., Isamuxametov Sh.A. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik) - Т.: "Innovatsion rivojlanish nashiyot matbaa uyi", 2020. 526 b.
9. Махмудов Э. "Корхона иқтисодиёти" (ўқув қўлланма) - Т.: ТДИУ. 2004 йил, 208-бет.
10. Navotova D.I. Main principles for determining the efficiency of the use of land resources// Proceedings of International Educators Conference 2023. Italiya. Vol.2 No. 2 (2023) 25th February, 2023 P. 443-447.
11. Navotova D.I. Possibilities of applying world experience in efficientuse of irrigatedlandsof the republic of Uzbekistan// International conference onscientificresearch in natural and social sciences. Canadaconference. Volume 2. Issue 2. February 5th 2023. P. 182-186.
12. Navotova D.I. Internal Differences In The Use Of Land Resources In The Agriculture Of Kashkadarya Region//Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Volume 16. Belgiya. 2023.P.100-104.



13. Ortqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.-T.: "Sano-standart", 2014.-304 b.
14. Султонов Ш.А., Навотова Д. И., Алиева Д. И. Қашқадарё вилояти минерал ресурслари ва улардан фойдаланишнинг географик хусусиятлари //Science and education in the modern world: challenges of the XXI century" Nur-Sultan, Kazakhstan. – 2020. – С. 12-15.
15. Sultonov Sh A, Rabbimov J Sh. Tabiiy gazni oltingugurtli birikmalar va karbonat angidrit gazidan tozalash. Educational Research in Universal Sciences 2024/1/29, 122-126 betlar. <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5911>
16. Sultonov Sh.A., "Foydali qazilmalar hosil bo'lishida geodinamik jarayonlarning o'rni". Journal of new century innovations. 47/1, 2024/2/16. 13-21-betlar. <https://newjournal.org/index.php/new/article/view/11592>
17. Sultonov Sh.A., Sultonov A.R., Jononov A.U., Sultonov N.A. Gazlilik va neftlilikni ajratib baholashni geologik asoslash. Research: Journal of Analysis and Trends Том 2. Страницы 1-5
18. Sultonov Sh.A., Navotova D.I, O'zbekistonda rangli metallarning geografik tarqalishi va foydalanish xususiyatlari. Экономика и социум. -№2(117)-1 2024, 682-690 betlar, 2024-yil. <http://www.iupr.ru>, ISSN 2225-1545.
19. Sh A Sultonov, J Sh Rabbimov. Tabiiy gazni oltingugurtli birikmalar va karbonat angidrit gazidan tozalash. Educational Research in Universal Sciences 2024/1/29, 122-126 betlar. <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5911>
20. Тұхлиев Н.Т. ва бошқалар. "Ўзбекистон иқтисодиёти асослари", Т.:2005
21. Yarboboev T., Sultanov Sh., Aminov F., Navotova D., Non-Traditional oils: analysis of regional distribution and reserves of heavy oil and natural bitumen. Бюллетень науки и практики / Bulletin of Science and Practice <https://www.bulletennauki.com> Т. 6. №7. 2020 <https://doi.org/10.33619/2414-2948/56> 226-234-betlar.